



NAVOIY VILOYATI STATISTIKA BOSHQARMASI

NAVOIY VILOYATINING SANOAT ISHLAB CHIQRISHI 2023- YIL YANVAR-APREL (DASTLABKI MA'LUMOT)



Tel.: 79-223-33-29
www.navstat.uz

Navoiy viloyati sanoatining asosiy ko'rsatkichlari

Sanoat – bu xomashyoni qayta ishlash, yer osti boyliklarini o'zlashtirish, ishlab chiqarish vositalari va xalq iste'moli mollarini yaratishni qamrab oluvchi ishlab chiqarish tarmog'i.


Dastlabki ma'lumotlar bo'yicha 2023- yilning yanvar-aprel oylarida viloyat korxonalaridan 28 705,8 mlrd. so'mlik sanoat mahsulotlari ishlab chiqarilgan bo'lib, 2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi 102,3 % ni tashkil etdi.

Sanoat ishlab chiqarishining fizik hajmi indeksi ishlab chiqarilgan mahsulotlar (ishlar, xizmatlar) hajmining taqqoslanadigan davrlardagi o'zgarishini tavsiflovchi nisbiy ko'rsatkichdir.


Hajmi, mlrd. so'm



yanvar-aprel mlrd. so'mda



FHI, % da





yanvar-aprel FHI, % da



Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash, hududlar kesimida

Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash – tabiatda qattiq jinslar shaklida uchraydigan (ko'mir, ruda), suyuq holatda uchraydigan (neft) yoki gazsimon holatda uchraydigan (tabiiy gaz) foydali qazilmalarni qazib olishni o'z ichiga oladi.


Tog'-kon sanoati va ochiq konlarni ishlash sanoati korxonalari tomonidan 2023- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 3 945,7 mlrd so'm yoki jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmidagi ulushi 13,7 % ga to'g'ri keldi.




Ishlab chiqaradigan sanoat hududlar kesimida

Ishlab chiqaradigan sanoat – bu tarmoq yangi mahsulot chiqarish maqsadida modda yoki komponentlarni, materiallarni, garchi ishlab chiqarishning ma’lum turi uchun birdan – bir to’liq me’zon hisoblanmasa ham, fizik yoki kimyoviy qayta ishlashni o’z ichiga oladi.

2023- yilning yanvar-aprel oylarida ishlab chiqaradigan sanoat korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 22 721,3 mlrd. so’zni yoki jami sanoat mahsulotlarining 79,2 % ini tashkil etdi.



O'tgan yilning mos davri bilan solishtirganda ishlab chiqaradigan sanoat tarkibida yuqori texnologiyali tarmoqning ulushi 0,1 % ni (2022- yilning yanvar-aprel oylarida – 0,3 %), o'rta-yuqori texnologiyali – 9,9 % (9,9 %), o'rta-quyi texnologiyali – 81,9 % (84,1 %) va quyi texnologiyalisi – 8,1 % (5,7 %)ni tashkil etdi.



Ishlab chiqaradigan sanoatda yirik korxonalar tomonidan ishlab chiqarilgan ayrim turdagi mahsulotlarning o'sish sur'ati (O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

2023- yilning yanvar-aprel oylari davomida ishlab chiqaradigan sanoatda 2 534,8 tonna plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar (2022- yilning yanvar-aprel oylariga nisbatan 132,4 % ga o'sgan), 895,0 tonna xlor (137,7 %), 852,3 ming tonna portlandsement (104,8 %) ishlab chiqarilib, yuqori o'sish sur'atlari kuzatildi.


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-aprel	2023- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Tvorog va tvorogdan mahsulotlar, tonna.	17,2	28,3	11,1
Fosfinatlar, fosfonatlar fosfatlar va polifosfatlar, ming tonna.	142,8	175,4	32,6
Xlor, tonna.	650,0	895,0	245,0
Yogurt, tonna.	1,5	1,9	0,4
Metanal (formaldegid), tonna.	270,0	343,0	73,0
Natriy sianidlari va sianidoksidlari, ming t.	15,9	15,5	-0,4
Suvsiz ammiak, ming t.	258,8	196,8	-62,0
Vodorod xlorid (xlorid kislota), ming t.	19,7	21,8	2,1
Natriy gidroksidi (kaustik soda), ming t.	20,1	18,9	-1,2
Portlandsement, ming tonna.	813,1	852,3	39,2
Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar, tonna.	1 915,0	2 534,8	619,8

* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Uglerod dioksidi ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-aprel oylarida)

Uglerod dioksidi – gazsimon uglerod dioksid suyuqligidan tashkil topgan (karbonat anhidrid, karbon dioksid) bo'lib, ammiak chiqindi gazlar, shuningdek, boshqa yonish mahsulotlar (past harorat suyuqlik, yuqori bosim suyuqlik va gaz) asosida olinadi.


Viloyatimizda 2023- yil yanvar-aprel oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 3,1 ming tonna uglerod dioksidi ishlab chiqarildi. Uglerod dioksidi ishlab chiqarish sanoati o'tgan yilning mos davriga nisbatan 96,5 % ni tashkil etdi.



Vodorod xlorid (xlorid kislota) ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-aprel oylarida)

Vodorod xlorid – xlorning eng muhim birikmalaridan biri bo'lib o'tkir hidli rangsiz gaz. U bilan nafas olinganida nafas yo'llarini yallig'lantiradi va bo'g'adi.

Viloyatimizda 2023- yilning yanvar-aprel oylarida yirik korxonalar bo'yicha jami 21,8 ming tonna vodorod xlorid (xlorid kislota) ishlab chiqarilib, ushbu ko'rsatkich o'tgan yilning mos davriga nisbatan 110,4 % ni tashkil etgan.



* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko'ra

Azot ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-aprel oylarida)

Azot – rangsiz, hidsiz gaz bo‘lib havoda erkin holda uchraydi va sanoatda suyultirilgan havoni parchalab olinadi.

2023- yilning yanvar-aprel oylarida jami 6,2 ming m³ azot ishlab chiqarildi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 2,1 % ni tashkil etdi.




2023- yil 6,2 ming m³

2022- yil 291,5 ming m³

2021- yil 4,9 ming m³

*o‘shish sur‘ati, % da**



Plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarish (2023- yilning yanvar-aprel oylarida)

Plastmassa quvurlar – asosan, suv bilan ta‘minlash va kanalizatsiya tizimlarida qo‘llanadi.

2023- yilning yanvar-aprel oylarida plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarishda, jami 2 534,8 tonna plastmassadan qattiq quvurlar, trubkalar va shlanglar ishlab chiqarildi, o‘tgan yilning mos davriga nisbatan 32,4 % ga ko‘paygan.




2023- yil 2 534,8 tonna

2022- yil 1 915,0 tonna

2021- yil 1 727,0 tonna

*o‘shish sur‘ati, % da**




* tegishli davr uchun sanoat ishlab chiqarishi hajmini hisoblash metodikasiga ko‘ra

Metallurgiya sanoati

Metallurgiya sanoati – cho‘yan ishlab chiqarish va qora va rangli metallarni qayta ishlash, jumladan, quyma cho‘yan va toza metallarga kimyoviy elementlar qo‘shgan holda superqotishmalar ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, metallurgiya sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 74,5 % bo‘lib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 2,1 % ga o‘tdi va ishlab chiqarish hajmi 16 935,5 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish

Avtotransport vositalari, treylerlar va yarim tirkamalar ishlab chiqarish – yo‘lovchilar yoki yuklarni tashish uchun avtotransport vositalari ishlab chiqarishni o‘z ichiga olib, turli butlovchi qismlar va aksessuarlar, shuningdek, treyler va yarim tirkamalarni ishlab chiqarishni ham o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, avtotransport vositalari, treyler va yarim tirkamalar ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 0,8 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 86,9 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 173,8 mlrd. so‘mni tashkil etdi.



Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish

Oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish – yeyiladigan qishloq xo‘jaligi, o‘rmon va baliqchilik (oziq-ovqat) mahsulotlarini, spirtsiz ichimliklarni, mineral suvlarni va boshqa idishdagi suvlarni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 3,4 % ni tashkil etib, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 6,4 % ga o‘sdii va ishlab chiqarish hajmi 775,3 mlrd. so‘mga to‘g‘ri keldi.



Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish

Kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish – kimyoviy jarayonlar yordamida organik va noorganik xomashyo, materiallarni qayta ishlashni va tayyor mahsulot ishlab chiqarishni o‘z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-aprel oylari yakunlariga ko‘ra, kimyo mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 7,7 % ni, o‘tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 94,7 % ni hamda ishlab chiqarish hajmi 1 751,3 mlrd. so‘mni tashkil etgan.



To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoati

To'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish – to'qimachilik tolasini tayyorlash va yigirish, shuningdek, to'qimachilik gazlamalarini va tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarish, to'qimachilik mahsulotlariga va kiyimlarga bezak berish, kiyimlardan tashqari tayyor to'qimachilik mahsulotlarini ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-aprel oylarida to'qimachilik mahsulotlari ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 2,9 % ni tashkil etgan, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 56,7 % ga ko'payib, ishlab chiqarish hajmi 658,7 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Kiyim ishlab chiqarish

Kiyim ishlab chiqarish – barcha materiallardan (masalan, teri, to'qimachilik gazlamalari, to'qilgan va trikotaj gazlamalari va h.k.) barcha tikish mahsulotlarini (tayyor yoki alohida buyurtma bo'yicha qilingan), kiyimlarning barcha turlari (masalan, ustki kiyim, erkaklar, ayollar va bolalar uchun ichki kiyimlar, ish, ofis, kundalik yoki sport kiyimlari va h.k.) va aksessuarlarni ishlab chiqarishni o'z ichiga oladi.


2023- yilning yanvar-aprel oylarida kiyim ishlab chiqarish sanoatining ishlab chiqaradigan sanoat tarkibidagi ulushi 1,3 % bo'lib, o'tgan yilning tegishli davriga nisbatan fizik hajm indeksi 105,5 % ni tashkil etdi va ishlab chiqarish hajmi 304,1 mlrd. so'mga to'g'ri keldi.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash – elektr energiyasini, tabiiy gazni, bug'ni, issiq suvni va shu kabilarni doimiy tarmoqlar – kabellar, quvurlar, suv quvurlari orqali yetkazib berish bilan bog'liq faoliyatni o'z ichiga oladi.

Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash korxonalarini tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 2 020,9 mlrd. so'mni (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 7,0 % ini) tashkil etgan.



Elektr, gaz, bug' bilan ta'minlash va havoni konditsiyalash sohasida yirik sanoat korxonalarini tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

2023- yilning yanvar-aprel oylarida o'tgan yilning mos davriga nisbatan elektroenergiya ishlab chiqarish 88,3 % ni, issiqlik energiyasi ishlab chiqarish esa 98,9 % ni tashkil etdi.


Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-aprel	2023- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Elektroenergiya, mln.kVt.s	4 104,1	3 623,3	- 480,8
Issiqlik energiyasi, ming gkal	1 989,5	1 967,2	- 22,3

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish, hududlar kesimida

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish – qattiq va suyuq, sanoat va maishiy, shuningdek, zaharlangan chiqindilarning barcha turlariga ishlov berish (yig'ish, qayta ishlash va yo'qotish)ni o'z ichiga oladi.

Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan ishlab chiqarilgan mahsulotlar hajmi 17,9 mlrd.so'mga (jami ishlab chiqarilgan sanoat mahsulotlari hajmining 0,1 % iga) to'g'ri keldi.



Suv bilan ta'minlash, kanalizatsiya tizimi, chiqindilarni yig'ish va utilizatsiya qilish korxonalari tomonidan sanoat mahsulotlarini ishlab chiqarish

O'tgan yilning mos davriga nisbatan quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar 275,0 % ni hamda suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar 107,1 % ni tashkil etdi.

Sanoat mahsulotlari	2022- yil yanvar-aprel	2023- yil yanvar-aprel	Farqi +/-
Suvga ishlov berish va suv quvurlari bo'yicha taqsimlash bo'yicha xizmatlar , mln. so'm	47 396,2	50 745,2	3 349,0
Quvurlar orqali suv sotish bo'yicha xizmatlar,mln. so'm	5 355,4	14 729,9	9 374,5

(O'tgan yilning mos davriga nisbatan, % da*)

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish

Tayyor mahsulot turlarini kengaytirish va ishlab chiqarilishini qo'llab-quvvatlash bo'yicha amalga oshirib kelinayotgan chora-tadbirlar natijasida, 2023- yilning yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlari ishlab chiqarish hajmi 1 302,4 mlrd. so'mni tashkil etib, 2022- yilning mos davriga nisbatan 107,9 %, uning jami sanoatdagi ulushi 4,5 % ga to'g'ri keldi.

Oziq-ovqat mahsulotlari




2023- yilning yanvar-aprel oylarida viloyatda 616,2 mlrd. so'mlik oziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 5,6 % ga oshdi.

Shu bilan birga, viloyatda 686,2 mlrd. so'mlik nooziq-ovqat mahsulotlari ishlab chiqarilib, o'tgan yilning shu davriga nisbatan o'sish sur'ati 10,1 % ga oshdi.

Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish tarkibida oziq-ovqat mahsulotlari 47,3 %, nooziq-ovqat mahsulotlar 52,7 % ni tashkil etdi. 2022- yilning yanvar-aprel oylarida iste'mol tovarlarining umumiy hajmida oziq-ovqat mahsulotlarining ulushi 44,6 %, nooziq-ovqat mahsulotlar ulushi 55,4 % ni tashkil etdi.

Nooziq-ovqat mahsulotlar



Iste'mol tovarlari ishlab chiqarish, hududlar kesimida

Iste'mol tovarlari – birinchi navbatda, shaxsiy iste'mol uchun yoki foyda olish bilan bog'liq bo'lmagan boshqa maqsadlarda ishlatiladigan sanoat mahsulotlari.

1 135,3 mlrd. so'm


2021- yil yanvar-aprel

1 204,9 mlrd. so'm

2022- yil yanvar-aprel


1 302,4 mlrd. so'm

2023- yil yanvar-aprel






Nooziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

yanvar-aprel
mlrd. so'm




Oziq-ovqat mahsulotlar ishlab chiqarish hajmi, tarkibi va o'sish sur'ati

yanvar-aprel
mlrd. so'm



yanvar-aprel
o'sish sur'ati



yanvar-aprel
o'sish sur'ati

